



AHOLI MOLIVAVIY SAVODXONLIGI DARAJASIGA TA'SIR KO'RSATUVCHI OMILLAR

*dots. **Abduvohidov Akmal***
Guliston davlat universiteti
ORCID: 0000-0001-8014-9435
akash7509@rambler.ru

Annotatsiya. Maqolada aholi moliyaviy savodxonligi darajasiga ta'sir qiluvchi asosiy omillar tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, moliyaviy savodxonlik darajasi ijtimoiy-demografik xususiyatlar (yosh, jins, ma'lumot darajasi, daromad), moliyaviy bilimlar, moliyaviy xulq-atvor, moliyaviy munosabat va moliyaviy tayyorgarlik kabi omillarga bog'liq. Shuningdek, oila, oilaviy holat, milliy va diniy xususiyatlar, shaxsning moliyaviy mahsulotlar bilan tajribasi ham moliyaviy savodxonlikni shakllantirishda muhim rol o'ynaydi.

Kalit so'zlar: moliyaviy savodxonlik, moliyaviy bilim, moliyaviy xulq-atvor, ijtimoiy-demografik omillar, moliyaviy tayyorgarlik, moliyaviy qarorlar, moliyaviy xavfsizlik, investitsiya, sug'urta.

ФАКТОРЫ, ВЛИЯЮЩИЕ НА ФИНАНСОВУЮ ГРАМОТНОСТЬ НАСЕЛЕНИЯ

*доц. **Абдувохидов Акмал***
Гулистанский государственный университет

Аннотация. В статье анализируются основные факторы, влияющие на уровень финансовой грамотности населения. Результаты исследования показывают, что уровень финансовой грамотности зависит от социально-демографических характеристик (возраст, пол, уровень образования, доход), финансовых знаний, финансового поведения, финансового отношения и финансовой подготовки. Кроме того, семья, семейное положение, национальные и религиозные особенности, а также опыт человека с финансовыми продуктами играют важную роль в формировании финансовой грамотности.

Ключевые слова: финансовая грамотность, финансовые знания, финансовое поведение, социально-демографические факторы, финансовая подготовка, финансовые решения, финансовая безопасность, инвестиции, страхование.

FACTORS INFLUENCING FINANCIAL LITERACY OF THE POPULATION

*assoc. prof. **Abduvohidov Akmal***
Gulistan State University

Abstract. This article analyzes the main factors influencing the level of financial literacy among the population. The research results show that the level of financial literacy depends on socio-demographic characteristics (age, gender, education level, income), financial knowledge, financial behavior, financial attitudes, and financial preparedness. In addition, family, marital status, national and religious characteristics, as well as an individual's experience with financial products, play an important role in shaping financial literacy.

Keywords: financial literacy, financial knowledge, financial behavior, socio-demographic factors, financial preparedness, financial decisions, financial security, investment, insurance.

Kirish.

So'nggi yillarda jamiyatning barcha sohalarida moliyaviy operatsiyalar hajmi va sur'atlarining jadal o'sishi, shuningdek, moliya bozorlarida ishtirok etuvchi sub'ektlar, ayniqsa investorlar sonining ortishi investitsiya jarayonlarida yuzaga keladigan risklarning turfa xilda namoyon bo'lishiga sabab bo'lmoqda. Bunday sharoitda keng aholining moliyaviy manfaatlarini himoya qilish, ularning huquqlarini ta'minlash va moliyaviy xavfsizligini mustahkamlashga qaratilgan samarali tizimni shakllantirish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Ayni paytda, fuqarolarning moliyaviy savodxonligi darajasini oshirish, ularda yangi moliyaviy tafakkur va madaniyatni shakllantirish globallashuv jarayoni shiddat bilan kechayotgan hozirgi iqtisodiy muhitda muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Bunday bilim va ko'nikmalar fuqarolarning iqtisodiy jarayonlarga ongli yondashuvini ta'minlaydi, ularni moliyaviy xatarlardan muhofaza qiladi, o'z navbatida esa iqtisodiyotda barqarorlik va muvozanatni ta'minlashda muhim omil sifatida namoyon bo'ladi.

Iqtisodiyotni izchil va muvozanatli rivojlantirish, aholi farovonligi hamda turmush darajasini yuksaltirishda fuqarolarning iqtisodiy bilim va ko'nikmalari, moliyaviy madaniyati alohida o'rin tutadi. Aholining moliyaviy faolligi va savodxonligi oshgan sari, ularning shaxsiy va ijtimoiy hayotda qabul qiladigan qarorlari yanada maqsadga muvofiq va samarali bo'ladi. Shu bilan birga, moliyaviy savodxonlikni oshirish tadbirkorlik muhitini yaxshilash, biznesni rivojlantirish hamda mamlakatda investitsiyaviy muhitni jozibadorlashtirish uchun muhim shart-sharoitlar yaratib beradi.

Mavjud iqtisodiy jarayonlar zamonaviy moliyaviy tafakkur va madaniyatni shakllantirish, shuningdek, aholining moliyaviy savodxonligini oshirish masalalarining dolzarbligini yanada kuchaytirmoqda. Ayniqsa, globallashuv sharoitida yuzaga kelayotgan murakkab iqtisodiy muammolarni samarali hal etish, avvalo, bilimga asoslangan iqtisodiyot tamoyillarini chuqur anglagan, moliyaviy xatarlarni baholash va boshqarish qobiliyatiga ega bo'lgan faol fuqarolar qatlamining shakllanishiga bevosita bog'liqdir.

Shu nuqtai nazardan qaralganda, moliyaviy savodxonlikni oshirish nafaqat makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash, balki investitsiya muhitini sog'lomlashtirish, jamiyatda iqtisodiy adolat tamoyillarini qaror toptirish va barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni ta'minlashda muhim strategik omil sifatida namoyon bo'lmoqda. Bunda moliyaviy bilimlarni ommalashtirish, aholining moliyaviy instrumentlardan oqilona foydalanish salohiyatini yuksaltirish, shuningdek, ularning iqtisodiy qarorlarni ongli qabul qilish qobiliyatini rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylanmoqda.

Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, aholining moliyaviy savodxonligi darajasini oshirish iqtisodiy barqarorlikka erishish, qashshoqlikni qisqartirish hamda moliyaviy inkluzivlikni ta'minlashda muhim omil hisoblanadi. Moliyaviy resurslarni samarali boshqarish, shaxsiy byudjetni rejalashtirish, kredit va investitsiya vositalaridan oqilona foydalanish, moliyaviy xavflarni anglash va baholash kabi bilim va ko'nikmalar har bir fuqaroga iqtisodiy muammolardan holi bo'lgan barqaror turmush tarzini shakllantirishga yordam beradi.

Ayniqsa, moliyaviy savodxonlik darajasining oshishi mamlakat ichidagi ishbilarmonlik muhiti rivojiga, kichik va o'rta biznes faoliyatini kengaytirishga va investitsion jozibadorlikni oshirishga xizmat qilar ekan, rivojlangan davlatlarda ushbu yo'nalishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Xususan, aholining moliyaviy savodxonligini oshirish masalasi ko'plab davlatlarda rasmiy siyosat darajasiga ko'tarilgan bo'lib, ushbu jarayonni muvofiqlashtiruvchi va moliyalashtiruvchi maxsus idoralar faoliyat yuritadi.

Bugungi kunda jahonning etakchi ilmiy markazlari va moliya sohasidagi nufuzli mutaxassislar tomonidan moliyaviy savodxonlik tushunchasi, uning mazmun-mohiyati hamda uni oshirishning samarali mexanizmlarini aniqlash bo'yicha keng qamrovli ilmiy-amaliy tadqiqotlar olib borilmoqda. Ushbu tadqiqotlarda, avvalo, moliyaviy savodxonlikning moliyaviy xizmatlar sohasi va moliya bozorlari rivojiga ko'rsatayotgan ta'siri, aholining qisqa va uzoq muddatli moliyaviy rejalashtirishga oid ongli qarorlar qabul qilish salohiyati, shuningdek,

fuqarolarning shaxsiy moliyaviy resurslarini samarali boshqarish va ko'paytirish strategiyalarini shakllantirishga bo'lgan ta'siri atroflicha tahlil qilinmoqda.

Bundan tashqari, moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish orqali aholi o'rtasida tegishli bilim va ko'nikmalarni mustahkamlash, aholining moliyaviy xulq-atvori va mas'uliyatini oshirish masalalari ham tadqiqotlarning asosiy yo'nalishlaridan biriga aylangan. Ayniqsa, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining moliyaviy xizmatlarga bo'lgan ehtiyojini qondirish, moliyaviy inklyuziyani ta'minlash, ishsizlik darajasini pasaytirish, aholining qarz mablag'laridan maqsadli va oqilona foydalanishini rag'batlantirish hamda moliyaviy hisobot yuritish bo'yicha amaliy ko'nikmalarni shakllantirish kabi masalalar alohida ahamiyat kasb etmoqda.

Adabiyotlar sharhi.

Aholi moliyaviy savodxonligining iqtisodiy mazmuni va uni oshirish masalalari xorijlik iqtisodchi olim va mutaxassislar tomonidan keng o'rganilgan. Xususan, Dartmut kolleji professori Lusardi (Dartmut kolleji), Mitchell (Pensilvaniya universiteti), Curto (Iqtisodiy tadqiqotlar Milliy byurosi) yoshlar o'rtasida moliyaviy savodxonlik masalalari (Lusardi et al., 2010); Mpata, Koske (Keniya universiteti) tadbirkorlik va moliyaviy savodxonlikning o'zaro bog'liqligi (Mpata, Koske va Saina, 2023); Murad (Jiangsu Universiteti), Li (Jiangsu Universiteti), Munir (Narowal Universiteti), Ashraf (Jiangsu Universiteti), Arora (Panjob Universiteti) moliyaviy savodxonlik va tadbirkorlik xulq-atvorining o'zaro ta'siri (Majid, 2021); Ojogbo (Nigeriya) moliyaviy savodxonlikning bitiruvchilarning tadbirkorlik ko'nikmalariga ta'siri (Ojogbo, 2022); Kojo (Janubiy Afrika Respublikasi Venda Universiteti) moliyaviy savodxonlik va yoshlar tadbirkorligi (Kojo, 2010); Philippas va Avdoulas (Gretsiya) Z avlod talabalarining moliyaviy savodxonligi (Philippas va Avdoulas, 2021); Sabri (Putra Univesiteti, Malayziya), MacDonald (Kanzas Universiteti, AQSH) kollej talabalarining moliyaviy xulq-atvori (Sabr va MacDonald, 2010); Sohn, Joo, Grable, Lee, Kim (Janubiy Koreya) Janubiy Koreya yoshlarining moliyaviy ijtimoiylashuvi (Sohn, et al., 2012); Stolper, Oscar, Walter (Germaniya Mtaburg universiteti) moliyaviy xulq-atvor (Stolper va Walter, 2017); Al-Mamary, Salem (Saudiya Arabistoni) Saudiya Arabistonida talabalarining tadbirkorlik xulq-atvorini shakllantirish (Al-Mamary va Salem, 2020) va shu kabi mutaxassislar tomonidan o'rganilgan.

O'zbekistonda moliyaviy savodxonlikning holati, o'ziga xos xususiyatlari va uni oshirish masalalari Vaxabovlar, Toshmatov, Xaydarov, G'afurov, Dusmuhamedov, Dusmuxamedova kabi olim va mutaxassislar tomonidan o'rganilgan (Vaxabov, 2013; Dusmuhamedov, 2020). Biroq, ushbu tadqiqotlarda mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini ta'minlashda aholi moliyaviy savodxonligi darajasini oshirishning ilmiy-uslubiy asoslari yetarli darajada tadqiq etilmagan.

Tadqiqot metodologiyasi.

Tadqiqotda aholi moliyaviy savodxonligiga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash va tahlil qilish uchun adabiyotlarni o'rganish, solishtirma tahlil, so'rov va statistik usullar qo'llanildi. Avvalo moliyaviy savodxonlik, moliyaviy bilimlar, xulq-atvor, munosabat va tayyorgarlikka oid ilmiy manbalar tahlil qilinib, asosiy o'zgaruvchilar tizimlashtirildi. So'rovnoma orqali respondentlarning moliyaviy bilimlari, qarorlari va amaliyotlari o'rganildi, natijalar Excel va SPSS dasturlarida statistik usullar yordamida tahlil qilindi. Shuningdek, yosh, jins, daromad va ma'lumot darajasi kabi ijtimoiy-demografik omillar bilan moliyaviy savodxonlik darajasi o'rtasidagi bog'liqlik aniqlanib, natijalar ilgari o'tkazilgan milliy va xalqaro tadqiqotlar bilan solishtirildi, xulosalar asosida tavsiyalar ishlab chiqildi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Moliyaviy savodxonlik – bu shaxsning to'g'ri moliyaviy qarorlar qabul qilishi va natijada individual moliyaviy farovonlikka erishishi uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma, xabardorlik, munosabat va amaliy harakatlar majmuasidir (IHTTI, 2018).

Moliyaviy savodxonlik shaxsning moliyaviy resurslarni samarali boshqarish qobiliyatini o'z ichiga oladi. Bu tushuncha shuningdek, muhim moliyaviy ma'lumotlarni yig'ish va tahlil qilish, turli moliyaviy variantlarni taqqoslash, moliyaviy masalalarni muhokama qilish va ularni rejalashtirish qobiliyatini ham o'z ichiga oladi. Shu bilan birga, moliyaviy savodxonlik shaxsning qaror qabul qilish jarayonida yuzaga keladigan murakkab moliyaviy savollarga asosli va malakali javob bera olishini ta'minlaydi.

Moliyaviy savodxonlik shaxsga nafaqat joriy moliyaviy vaziyatni boshqarish imkonini beradi, balki uzoq muddatli moliyaviy maqsadlarni belgilash va ularga erishish uchun strategik yondashuvni shakllantirishga yordam beradi. Bu, masalan, shaxsiy byudjetni tuzish, jamg'arma va sarmoya portfelini rejalashtirish, qarz va kredit resurslarini oqilona boshqarish, shuningdek moliyaviy risk va daromadlarni muvozanatlash kabi ko'nikmalarni o'z ichiga oladi.

Shuningdek, moliyaviy savodxonlik insonning moliyaviy qarorlariga bo'lgan psixologik yondashuvini ham o'z ichiga oladi. Bu shaxsning moliyaviy maqsadlarga bo'lgan intilishi, risklarni qabul qilish darajasi va moliyaviy resurslardan foydalanishdagi mas'uliyatini belgilaydi. Natijada, moliyaviy savodxon shaxs nafaqat o'z moliyaviy farovonligini oshiradi, balki moliyaviy qarorlarni ongli va asosli qabul qilish orqali oilaviy va jamiyat moliyaviy barqarorligiga hissa qo'shadi.

Moliyaviy savodxonlikni oshirish uchun shaxsga moliyaviy ta'lim berish, moliyaviy xizmatlar va mahsulotlar bilan tanishtirish, investitsiya va sug'urta sohalaridagi imkoniyatlarni tushuntirish kabi strategiyalar qo'llaniladi. Shu tarzda moliyaviy savodxonlik nafaqat shaxsning bilim va ko'nikmalarini oshiradi, balki uning moliyaviy mustaqillik va barqarorlik darajasini ham oshirishga xizmat qiladi (Firli, 2017).

Moliyaviy savodxonlik keng tushuncha bo'lib, shaxsning pulni boshqarish va moliyaviy resurslardan samarali foydalanish qobiliyatini o'z ichiga oladi. Bu tushuncha bir nechta muhim jihatlarni qamrab oladi:

1. Jamg'arma va qarz olish: Shaxs kelajakdagi xarajatlar uchun pulni tejashni va zarur hollarda kredit resurslaridan oqilona foydalanishni o'rganadi. Bu jarayonda byudjetlashtirish va moliyaviy rejalashtirish ko'nikmalarini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega.

2. Shaxsiy byudjetlashtirish: Daromadlar va xarajatlar asosida shaxsiy byudjet tuzish va uni samarali boshqarish. Bu moliyaviy qarorlarni ongli ravishda qabul qilishga xizmat qiladi.

3. Iqtisodiy masalalarni tushunish: Iqtisodiy tendensiyalar, bozor dinamikasi va ularning moliyaviy qarorlarga ta'sirini bilish, shuningdek makroiqtisodiy omillarni tushunish.

4. Moliyaviy tushunchalarni bilish: Foiz stavkalari, inflyatsiya, investitsiya variantlari, sug'urta mahsulotlari va boshqa moliyaviy atamalar bilan tanishish. Bu bilimlar shaxsga moliyaviy qarorlarni yanada asosli qabul qilish imkonini beradi.

5. Moliyaviy xizmatlardan xabardorlik: Bozorda mavjud moliyaviy mahsulotlar va xizmatlar, jumladan bank xizmatlari, sug'urta, kredit va investitsiya imkoniyatlaridan xabardor bo'lish.

6. Investitsiya strategiyalari: Turli investitsiya vositalari va ularning xavf-xatarlarini tushunish. Bu, shuningdek, risk va daromadni muvozanatlashga yordam beradi va oqilona investitsiya qarorlarini qabul qilish uchun zarurdir.

Adabiyotlar tahlili asosida moliyaviy savodxonlikka ta'sir ko'rsatuvchi o'zgaruvchilar va ko'rsatkichlarni aniqlash hamda ularni toifalarga ajratishga harakat qilindi. Taklif etilayotgan asos to'rtta asosiy o'zgaruvchidan iborat bo'lib, ular adabiyotlar tahlili davomida aniqlangan turli o'zgaruvchilar va ko'rsatkichlarning kombinatsiyasidan kelib chiqadi (1-jadval).

Ushbu yondashuv moliyaviy savodxonlikni tizimli tarzda tushunishga yordam beradi va tadqiqot jarayonida turli omillarni izchil baholash imkonini yaratadi. Shu bilan birga, o'zgaruvchilarni toifalarga ajratish moliyaviy savodxonlikka ta'sir etuvchi omillarni aniqroq aniqlash, ularning o'zaro bog'liqligini tushunish va shaxslar yoki guruhlar darajasida moliyaviy xulq-atvorni baholash imkonini beradi.

1-jadval

Taklif etilayotgan moliyaviy savodxonlik omillari

Shaxsiy ijtimoiy-demografik xususiyatlar	Moliyaviy bilimlar	Moliyaviy xulq-atvor	Moliyaviy munosabat	Moliyaviy tayyorgarlik
• Yosh • Jinsi • Ta'lim • Oilaviy ahvoli • Millati • Daromad • Shaxsiy daraja (motivatsiya, onlayn vositalar, munosabat va iroda) • Kasbi • Boylik • Malaka • Umid va ishonch • Diniy e'tiqod • Ota-onaning ta'limi • Ota-onaning kasbi • Oila a'zolarining qo'llab-quvvatlashlari • Ish faolligi	• Joriy mahsulot va xizmatlar haqida ma'lumot • moliyaviy ta'lim • Asosiy bilimlar • Pullarni boshqarish • Jamg'arma va investitsiya • Risklarni boshqarish • Tushunish va fikr	• Pullarni birlamchi boshqarish • Jamg'armaga moyillik • Investitsiyalashga moyillik • Portfel va diversifikatsiyalashga oid xatti-harakatlar • Moliya bozorlarida ishtirok qilish (obligatsiyalar, veksellar, repo, aksiyalar, xedjirlash fondlari, oltin, chet el valyutasi, muddatli depozit va boshq.).	• Pulga munosabat • Moliyaviy javobgarlik	• Moliya bo'yicha ta'lim olish

Moliyaviy savodxonlikka ta'sir etuvchi omillarni beshta asosiy toifaga ajratish mumkin:

1. Shaxsiy ijtimoiy-demografik xususiyatlar – yosh, jins, oilaviy holat, daromad va boshqa demografik omillar shaxsning moliyaviy qaror qabul qilish qobiliyatiga ta'sir qiladi.

2. Moliyaviy bilimlar – shaxsning moliyaviy tushunchalar, xizmatlar va mahsulotlar, investitsiya imkoniyatlari va iqtisodiy jarayonlar bo'yicha bilim darajasi.

3. Moliyaviy xulq-atvor – shaxsning moliyaviy qarorlar qabul qilishdagi amaliy odatlari, jamg'arma va sarmoya qilish yondashuvlari, risklarni boshqarish usullari.

4. Moliyaviy munosabat – pulga bo'lgan qarashlari, moliyaviy mas'uliyat darajasi va moliyaviy maqsadlariga intilishi.

5. Moliyaviy tayyorgarlik – moliyaviy qarorlarni asosli qabul qilish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va strategik rejalashtirish qobiliyati.

Turli yoshdagi shaxslar moliyaviy savodxonlikning turli darajalariga ega bo'lishi mumkin. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, rivojlangan mamlakatlarda yoshlar ko'pincha moliyaviy bilimlarga ega emaslar, katta yoshdagilar esa moliyaviy bilimlarning yuqori darajasiga ega bo'lishga moyil.

Ushbu nomutanosiblikka bir qator omillar, jumladan, shaxsning hozirgi moliyaviy holati, to'plangan bilimlari, moliyaviy maqsadlari va kutilayotgan kelajakdagi natijalari ta'sir qilishi mumkin. Ma'lumot darajasi moliyaviy savodxonlikni oshiradi, chunki u shaxsga moliya bo'yicha bilimlarni chuqurroq o'zlashtirish, o'z nuqtai nazarini shakllantirish va moliyaviy mahsulotlarni tahlil qilish imkonini beradi.

Olivia S. Mitchell va Annamaria Lusardining tadqiqotiga ko'ra, ta'lim moliyaviy bilimlarning asosiy omili sifatida aniqlangan. Biroq, hatto yaxshi ma'lumotga ega bo'lgan shaxslar ham har doim pulni to'liq tushunavermaydilar. Ushbu tadqiqot Kanada, Germaniya,

Niderlandiya, Shveytsariya, Shvetsiya, Yaponiya, Italiya, Frantsiya, Avstraliya va Yangi Zelandiya kabi turli mamlakatlarni qamrab olgan.


Lusardi va Mitchell shuningdek, erkaklar o'z moliyaviy bilimlariga haqiqatda mavjud bo'lganidan ko'ra ko'proq ishonch bildirishini aniqladilar. Ular ko'pincha moliyaviy savodxonlik bo'yicha savollarga noto'g'ri javob berishsa ham, o'zlariga bo'lgan ishonchlarini yo'qotmaydilar. Ayollar esa o'rtacha hisobda kamroq savollarga to'g'ri javob beradilar, lekin javobni bilmaganlarini tan olishga ko'proq moyil bo'ladilar.

Maqolada jinsiy farqlar moliyaviy bilimlarga ta'sir qiluvchi muhim omil bo'lishi mumkinligi ta'kidlangan. Bu natijalar moliyaviy savodxonlikni oshirishda yondashuvlarni jinsiy nuqtai nazardan ham moslashtirish zarurligini ko'rsatadi (Mitchell va Lusardi, 2015).

Lusardi va Mitchell shuningdek aniqladilar-ki, moliyaviy savodxonlikning past darajasi respondentlar orasida faoliyatining boshida, ayniqsa 23 yoshdan 28 yoshgacha bo'lgan shaxslar orasida keng tarqalgan. Xuddi shunday natijalar 23 yoshdan 35 yoshgacha bo'lgan, hatto oliy ma'lumotli shaxslar orasida ham kuzatilgan.

Ushbu topilmalar yosh shaxslarning moliyaviy bilimlarini oshirish bo'yicha maxsus yondashuvlar va ta'lim dasturlarini ishlab chiqish zarurligini ko'rsatadi, chunki yosh avlod moliyaviy qarorlarni qabul qilishda ko'pincha yetarli tajriba va ko'nikmalarga ega emas (Lusardi va Mitchell, 2011).

Oilaviy holat va daromad moliyaviy savodxonlikka sezilarli ta'sir ko'rsatishi bir qator tadqiqotlar bilan isbotlangan. Oilaviy holatda bo'lgan shaxslar, masalan, investitsiya qilish, pensiya jamg'armalarini shakllantirish va uzoq muddatli moliyaviy maqsadlarga erishish orqali boylikni oshirishga ko'proq motivatsiyaga ega bo'ladilar.



1-rasm. AQSh, Niderlandiya, Shveytsariya va Germaniyada ta'lim bo'yicha moliyaviy savodxonlik (Lusardi va Mitchell, 2014)

Daromadi, kasbi va mol-mulki yuqori bo'lgan shaxslar esa pensiya jamg'armalari, sug'urta mahsulotlari va kapital bozoridagi investitsiyalar kabi moliyaviy vositalarga ko'proq qiziqish bildiradilar. Bunday shaxslar ko'pincha moliyaviy mahsulotlarga biznesga yo'naltirilgan yondashuv bilan qaraydilar va obligatsiyalar, aktsiyalar, xedj fondlari va boshqa investitsiya vositalarini o'z portfellarida qo'llashga intiladilar.

Shu bilan birga, oilaviy holat va daromad moliyaviy qarorlar qabul qilishdagi xulq-atvorni shakllantirishda muhim rol o'ynaydi, chunki ular moliyaviy resurslarni boshqarish va uzoq muddatli rejalashtirishga motivatsiya beradi.

Insonlarning ehtiyojlari va xususiyatlari ularning millati va qaysi mamlakatda yashashiga qarab farqlanadi. Masalan, rivojlanayotgan mamlakatlarda odamlar ko'pincha boshqa turdagi investitsiyalardan foydalanish imkoniyati cheklanganligi sababli jismoniy infratuzilmaga sarmoya kiritishga ko'proq intilishadi. Shuningdek, ular rivojlangan mamlakatlardagi shaxslarga qaraganda moliya bozorida kamroq tajriba va bilimga, shuningdek, aholi jon boshiga daromadning pastligiga ega bo'lishi mumkin.

Turli tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, shaxsiy xususiyatlar — motivatsiya, umidsizlik, munosabat, iroda va onlayn moliyaviy xizmatlarga kirish imkoniyati — moliyaviy savodxonlik bilan bog'liq turli xatti-harakatlarga olib keladi. Moliyaviy mahsulotlar va bozorlar haqidagi qarashlar turli diniy e'tiqodga ega bo'lgan shaxslar orasida ham farqlanadi. Xususan, musulmonlarni islom moliyaviy mahsulotlariga bo'lgan e'tiqodi tufayli jalb qilish tendentsiyasi mavjud bo'lib, bu ularning moliyaviy savodxonlikka boshqa dinlarga nisbatan o'ziga xos yondashuviga olib keladi.

Shaxsning moliyaviy savodxonligini shakllantirishda oila ham muhim rol o'ynaydi. Ota-onalarning ma'lumoti, kasbi va oilaviy qadriyatlar shaxsning pulga bo'lgan tasavvurlarini shakllantiradi. Bu omillar odamlar orasida moliyaviy savodxonlikning xilma-xilligiga hissa qo'shadi.

Ko'plab tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, moliyaviy savodsizlik ko'pincha asosiy moliyaviy tushunchalarni tushunmaslikdan kelib chiqadi. Ushbu muammoni bartaraf etish maqsadida ko'plab mamlakatlar moliyaviy ta'limni maktab o'quv dasturlariga faol kiritmoqda. Bu yondashuv shaxslarni moliyaviy qarorlarni asosli qabul qilish uchun zarur bo'lgan bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishiga hamda pul mablag'larini boshqarishga ijobiy munosabat shakllantirishga yo'naltirilgan.


Moliyaviy savodxonlikni baholashda ishlatiladigan ko'rsatkichlar joriy moliyaviy mahsulotlar va xizmatlar haqidagi bilimlarni o'z ichiga oladi. Odamlar mavjud mahsulot va xizmatlar bilan qanchalik ko'p tanish bo'lsa, ularning moliyaviy savodxonlik darajasi shunchalik yuqori bo'ladi.

Moliyaviy bilimlarni baholashda yana bir muhim ko'rsatkich moliyaviy ta'limdir. Pulning vaqtdagi qiymati, inflyatsiya, foiz stavkalari, risklarni tasniflash va risk-reward tamoyili kabi asosiy tushunchalar moliyaviy savodxonlikning muhim tarkibiy qismini tashkil qiladi.

Moliyaviy savodxonlik shuningdek pulni qanday saqlash, sarmoya kiritish va boshqarishni tushunish bilan bog'liqdir. Turli moliyaviy mahsulotlar bilan bog'liq xavflarni farqlash va xavf hamda daromadni muvozanatlashni bilish muhimdir. Moliyaviy bilimlar insonning pulga va moliyaviy xatti-harakatlariga bo'lgan qarashini shakllantiradi. Shu sababli, moliyaviy savodxonlik xulq-atvor bilan bevosita bog'liq bo'lib, shaxslarning moliyaviy qarorlar qabul qilishiga ta'sir qiladi.

Sirli Mandma tomonidan o'tkazilgan "Oliy ta'lim muassasalari talabalarining moliyaviy savodxonligiga ta'sir etuvchi omillar tahlili" nomli tadqiqotda moliyaviy savodxonlik va talabalar moliyaviy fikrlari hamda tanlovlari o'rtasidagi bog'liqlikni baholash maqsadida 522 nafar talaba o'rtasida so'rov o'tkazildi. Tadqiqot doirasida ishtirokchilarning moliyaviy bilimlari, qarorlari va fikrlariga ta'lim va demografik omillarning ta'siri ham o'rganildi. Statistik tahlil shuni ko'rsatdiki, moliyaviy savodxonlik talabalarning **jinsi, millati, ma'lumot darajasi** kabi o'zgaruvchilari bilan sezilarli darajada bog'liq edi. Moliyaviy qarorlarni qabul qilish va uzoq muddatli moliyaviy rejalashtirish nuqtai nazaridan bir qator omillar muhim rol o'ynadi. Xususan, debet kartaga ega bo'lish va bank kreditlaridan foydalanish hamda kundalik moliyaviy boshqaruv amaliyoti talabalar moliyaviy savodxonligiga sezilarli ta'sir ko'rsatdi. Bundan tashqari, fan yoki matematika yo'nalishida ta'lim olayotgan talabalar moliyaviy masalalarni chuqurroq tushunishga moyil ekanligi aniqlangan. Shuningdek, moliyaviy mahsulotlar va

xizmatlar haqida ko'proq ma'lumot olish istagi ham talabalarda yuqori darajada kuzatilgan. Ushbu natijalar shuni ko'rsatadiki, **ta'lim yo'nalishi, demografik omillar va kundalik moliyaviy tajriba** talabalarning moliyaviy savodxonligini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega (Mändmaa, 2019).



2-rasm. Moliyaviy savodxonlik omillari

Shaxsning moliyaviy xulq-atvori uning asosiy moliyaviy masalalarni boshqarishga bo'lgan yondashuvi orqali baholanishi mumkin. Bu yondashuvga jamg'arma odatlari, ya'ni daromad va xarajatlarga munosabat, hamda investitsiya strategiyalari kiradi. Ba'zi shaxslar moliyaviy portfellarini boshqarishda minimal xavf bilan yuqori daromad olishga qaratilgan diversifikatsiya usullarini birlashtirishni afzal ko'radilar.

Diversifikatsiya jarayonida risk va daromad o'rtasidagi eng maqbul muvozanatni tanlash yaxshi moliyaviy bilimga ega bo'lgan shaxslar uchun eng samarali yo'l hisoblanadi. Shu sababli moliyaviy portfelni boshqarish va diversifikatsiyaga oid xatti-harakatlar shaxsning moliyaviy savodxonlik darajasiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Moliyaviy xulq-atvor shuningdek, shaxsning moliyaviy mahsulotlarni sotib olishdagi ishtiroki orqali ham aniqlanishi mumkin. Masalan, shaxsning investitsiyalarining qanchasi bozor vositalarida — obligatsiyalar, veksellar, repolar, aktsiyalar, xedj fondlari, oltin, chet el valyutasi va muddatli depozitlarda — joylashganligi moliyaviy xulq-atvorni ko'rsatadi.

Moliyaviy savodxonlikka ta'sir qiluvchi boshqa muhim omillar moliyaviy munosabat va moliyaviy ta'lim hisoblanadi. Moliyaviy munosabat shaxsning pulga bo'lgan qarashlari va moliyaviy mas'uliyat darajasiga bog'liq. Moliyaviy ma'lumotga ega bo'lgan shaxslar moliya bo'yicha ko'proq bilimga ega bo'lib, asosli qarorlar qabul qilish qobiliyatini namoyon etadilar, natijada ularda moliyaviy savodxonlik darajasi yuqori bo'ladi.

TIAA Institute's Personal Finance Index: The Global Center for Advanced Financial Literacy 2022 hisobotida moliyaviy savodxonlik darajasi turli xil ijtimoiy-demografik omillar, jumladan, yosh, irq va etnik kelib chiqishi, shuningdek, boshqa ko'rsatkichlarga qarab farq qiladi (Yakoboski, Lusardi va Hasler, 2022).

2-jadval

**P-fin indeksi bo'yicha savollarga to'g'ri javob berganlar ulushi,%
(Yakoboski, Lusardi, Hasler, 2022)**


Gender	
Erkaklar	55%
Ayollar	45%
Ta'lim	
Oliy ma'lumotli bo'lmaganlar	31%
Oliy ma'lumotlilar	38%
Kollej	65%
Moliyaviy savodxonlik	
Moliyaviy ma'lumotga ega bo'lganlar	60%
Moliyaviy ma'lumotga ega bo'lmaganlar	46%
Uy xo'jaliklarining daromadi	
25000 dollargacha	30%
25000-49000 dollar	38%
50000-99000 dollar	51%
100000 dollardan yuqori	60%
Bandlik holati	
Bandlar	53%
Ishsizlar	37%
Ishchi kuchi safidan chiqqanlar	52%

Moliyaviy savodxonlik darajasi odatda erkaklar, yuqori ma'lumot darajasiga ega shaxslar, moliyaviy tayyorgarlik ko'rganlar, ishlayotgan yoki nafaqaga chiqqan shaxslar hamda uy xo'jaligi daromadi yuqori bo'lgan odamlar orasida yuqori bo'lishi kuzatiladi. Ushbu natijalar avvalgi yillardagi P-Fin indeksi ma'lumotlari va boshqa tadqiqotlarda aniqlangan tendentsiyalar bilan uyg'unlik ko'rsatadi (2-jadval).

Shuningdek, Standard & Poor's Global Financial Literacy Survey ham AQShdagi katta yoshli aholi orasida moliyaviy savodxonlik ijtimoiy-demografik omillarga ko'ra sezilarli darajada farqlanishini ko'rsatadi. Misol uchun, erkaklarning taxminan 62 foizi va ayollarning 52 foizi moliyaviy jihatdan savodli hisoblanadi (3-rasm).


Ma'lumotlar shuni ham ko'rsatadiki, yuqori daromadli oilalarda yashovchi katta yoshdagi insonlarning 64 foizga yaqini va kam daromadli xonadonlarda istiqomat qiluvchilarning 47 foizi yaxshi darajadagi moliyaviy bilimga ega (3-rasm).

2020-yilgi P-Fin ko'rsatkichi S&P Global tomonidan o'tkazilgan moliyaviy savodxonlik tadqiqoti natijalarini yana bir bor tasdiqladi. Tadqiqot shuni ko'rsatdiki, moliyaviy savodxonlik darajasi ijtimoiy-demografik guruhlariga ko'ra sezilarli darajada farq qiladi.



3-rasm. Moliyaviy savodxonlikning gender va daromad bo'yicha farqlanishi (Klapper va boshq., 2015)

Masalan, P-Fin ko'rsatkichida to'g'ri javoblar soni yosh, daromad va ma'lumot darajasi bilan ijobiy bog'liqlikni ko'rsatdi. Shuningdek, moliyaviy savodxonlik darajasi ayollarga nisbatan erkaklarda yuqoriroq ekanligi aniqlandi.



4-rasm. Moliyaviy savodxonlikning irq bo'yicha farqlanishi (Bumcrot, Lin va Lusardi, 2011)

Moliyaviy imkoniyatlar milliy tadqiqoti ham moliyaviy bilimlar ijtimoiy-demografik guruhlariga qarab sezilarli darajada farq qilishini tasdiqlaydi (Lin va Bates, 2022). Tadqiqot natijalariga ko'ra, moliyaviy bilim erkaklarda ayollarga nisbatan yuqori bo'lib, yosh va daromad bilan ijobiy korrelyatsiyaga ega. Bundan tashqari, irqiy va etnik xususiyatlarga qarab natijalar tahlil qilinganda, qora tanlilar va lotin amerikaliklar orasida moliyaviy bilimlar osiyoliklar va oq tanlilarga nisbatan ancha past ekanligi ma'lum bo'ladi (4-rasm).

Aholi moliyaviy savodxonligining mazmuni va ahamiyatini ochib berishda uning darajasiga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni aniqlash va muayyan tizimga solish muhim o'rin tutadi.

Voskanyanning ta'kidlashicha, aholi moliyaviy savodxonligini oshirish masalasini uning darajasiga ta'sir ko'rsatuvchi asosiy omillarni aniqlamasdan turib hal etib bo'lmaydi. Shunga ko'ra u quyidagi omillarni ajratib ko'rsatadi:


- 1) mamlakatdagi iqtisodiy ta'lim darajasi;
- 2) moliyaviy infratuzilmaning mavjudligi va rivojlanganlik darajasi;
- 3) aholining iqtisodiyotga ishonchi darajasi;
- 4) moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlari (Voskonyan, 2018).

Xulosa va takliflar.

Fikrimizcha, aholi moliyaviy savodxonligi tushunchasi o'ta darajada umumlashtirilgan mazmun kasb etib, uni moliyaviy savodxonlik darajasiga ta'sir ko'rsatuvchi omillarning yuqorida keltirilgan tasnifi to'liq ifodalay olmaydi.

Muayyan hudud (viloyat, shahar, tuman) aholisining moliyaviy savodxonligi darajasiga mazkur hududning o'ziga xos xususiyatlari hamda yuritilayotgan iqtisodiy siyosat natijasida shakllanuvchi quyidagi omillar ta'sir ko'rsatadi:

1) hududning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanganlik darajasi. Eng avvalo shuni ta'kidlash kerakki, o'z tavsifiga ko'ra ushbu omil kompleks, ya'ni ko'plab xususiy omillarning muayyan jihatlarini umumlashtiruvchi hisoblanadi.



5-rasm. Hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish holatini baholashning ustuvor yo'nalishlari

Shu o'rinda, moliyaviy savodxonlikka alohida shaxs, hudud va milliy darajalarda ta'sir ko'rsatuvchi omillarni umumlashgan holda namoyon etuvchi quyidagi ko'rsatkichlarni yuqorida ta'kidlab o'tilgan mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish holatini baholash reyting ko'rsatkichlari tarkibiga kiritishni taklif etish mumkin:

"Aholi moliyaviy savodxonligi va uni oshirish ko'rsatkichlari" bandi:

- ma'lumot darajasi (o'rta, o'rta maxsus, oliy ma'lumotlar bo'yicha);
- moliyaviy institutlar va infratuzilma ob'ektlari soni va xizmat ko'rsatish hajmi;
- aholi moliyaviy savodxonligini oshirishga qaratilgan tadbirlar soni (dastur asosida).

Ayrim shahar, tuman yoki viloyatlarning yuqorida ko'rsatib o'tilgan yo'nalishlar bo'yicha ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan rivojlanganligi uning aholisi uchun nisbatan kam rivojlangan hudud aholisiga qaraganda moliyaviy savodxonlikni oshirish yuzasidan keng imkoniyatlar taqdim etadi;

2) hududda aholi moliyaviy savodxonligini oshirish bo'yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar. Umumiy holda mazkur chora-tadbirlarning quyidagi asosiy ko'rinishlarini sanab o'tish mumkin:

- moliyaviy savodxonlikni oshirish bo'yicha milliy darajadagi dastur (yoki strategiya)ning qabul qilinishi;
- moliyaviy savodxonlikning alohida yo'nalishi (masalan, bank, sug'urta, pensiya sohalari va h.k.) bo'yicha dasturlarning qabul qilinishi;

- aholi muayyan qatlami (masalan, o'quvchilar, pensionerlar va h.k.)ning moliyaviy savodxonligini oshirish chora-tadbirlari va h.k.

Ayni paytda ayrim shahar, tuman yoki viloyatlar darajasida aholi moliyaviy savodxonligini oshirish bo'yicha tizimli chora-tadbirlarning amalga oshirilishi mazkur jarayonga sezilarli ta'sir ko'rsatadi;

3) moliyaviy institutlar va infratuzilma ob'ektlari faoliyat darajasi. Hududdagi moliyaviy institutlar (tijorat banklari, sug'urta kompaniyalari, investitsiya fondlari, pensiya fondlari va h.k.) va moliyaviy savodxonlik infratuzilma ob'ektlari (iqtisodiy, moliyaviy, huquqiy masalalar bo'yicha maslahat berish, biznes-inkubatorlar, o'quv markazlari va boshq.) faoliyatining yuqori darajasi hudud aholisining moliyaviy savodxonligi darajasiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi;

4) hududning geografik joylashuvi. O'z-o'zidan ma'lumki, hudud mamlakatning iqtisodiy va ma'muriy markaziga qanchalik yaqin bo'lsa, moliyaviy xizmat ko'rsatish ob'ektlari (tijorat banklari, sug'urta tashkilotlari, pul ayirboshlash shoxobchalari, kredit byurolari, investitsion kompaniyalar va h.k.) faoliyati shunchalik keng rivojlangan bo'ladi. Mazkur moliyaviy xizmatlardan foydalanishni kundalik turmush tarziga aylantirgan mazkur hududning aholisi esa shu qadar ko'proq moliyaviy jihatdan savodxonlikka erishadi. Tabiiyki, olis va chekka qishloqlar, tog'li hududlardagi aholining bu boradagi ko'rsatkichlari u qadar yuqori bo'lmaydi.

Qo'shma Shtatlardagi moliyaviy savodxonlik bo'yicha Milken instituti hisobotida ta'kidlanishicha, moliyaviy texnologiyalarning paydo bo'lishi, ayniqsa, yosh va zaif guruhlarda moliyaviy savodxonlikni oshirishda muhim rol o'ynashi mumkin. Moliyaviy va iqtisodiy tamoyillarni o'qitishning yangi va qiziqarli usullarini taqdim etish, shuningdek, moliyaviy ta'lim va o'qitishni yanada qulaylashtirish orqali moliyaviy texnologiyalar butun mamlakat bo'ylab moliyaviy savodxonlik tashabbuslarini ishga tushirish uchun katalizator bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Biroq, raqamli moliyaviy xizmatlarning jadal o'zlashtirilishi iste'molchilar uchun yangi xavf va qiyinchiliklarni keltirib chiqarmoqda. Firibgarlikning oldini olish, shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish va ushbu texnologiyalar bilan bog'liq qimmatli xatoliklarni kamaytirish uchun iste'molchilar bu xizmatlardan qanday xavfsiz va samarali foydalanish bo'yicha chuqurroq bilimga ega bo'lishlari zarur.

Moliyaviy texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlarining kengayishi moliyaviy savodxonlikning yanada keng qamrovli ta'rifi bilan birga kelishi muhimligini tan olish lozim. Bu ta'rif iste'molchilarga o'z moliyaviy farovonligi haqida asosli qarorlar qabul qilish va raqamli moliya olamining murakkabliklarida yo'l topa olish imkonini beradigan bilim va ko'nikmalarni o'z ichiga olishi kerak.

Adabiyotlar/Lumepamypa/References:

Abduvoxidov, A. and Kamilova, S. (2023) 'Inson kapitalining raqamli rivojlanishini baholash.' *Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil*, 1, 2.

Al-Mamary, Yaser Hasan Salem, et al. (2020) 'Factors impacting entrepreneurial intentions among university students in Saudi Arabia: testing an integrated model of TPB and EO.' *Education+ Training*, 62(7/8), 779-803.

Bumcrot, C. B., Lin, J. and Lusardi, A. (2011) *The geography of financial literacy*.

Дусмухамедов О.С., Дусмухамедова Ш.А. (2020) 'Аҳолининг молиявий саводхонлигини баҳолашнинг назарий асослари.' «*Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar*» ilmiy elektron jurnali, № 5, sentyabr-oktyabr, 43-52-б.

Firli, A. (2017) 'Factors that influence financial literacy: A conceptual framework.' *IOP Conference Series: Materials Science and Engineering*, T. 180, №. 1, C. 012254.

Klapper, L., Lusardi, A. and Van Oudheusden, P. (2015) 'Financial literacy around the world.' *World Bank. Washington DC: World Bank*, T. 2, C. 218-237.

Kojo Oseifuah, Emmanuel (2010) 'Financial literacy and youth entrepreneurship in South Africa.' *African journal of Economic and management studies*, 1(2), 164-182.

- Lin, C. A. and Bates, T. C. (2022) 'Smart people know how the economy works: Cognitive ability, economic knowledge and financial literacy.' *Intelligence*, T. 93, C. 101667.
- Lusardi, A. and Mitchell, O. S. (2011) 'Financial literacy around the world: an overview.' *Journal of pension economics & finance*, T. 10, №. 4, C. 497-508.
- Lusardi, A. and Mitchell, O. S. (2014) 'The economic importance of financial literacy: Theory and evidence.' *American Economic Journal: Journal of Economic Literature*, T. 52, №. 1, C. 5-44.
- Mändmaa, S. (2019) 'Analyzing the factors influencing university students' financial literacy.' *International Journal for Innovation Education and Research*, T. 7, №. 7, C. 465-497.
- Mitchell, O. S. and Lusardi, A. (2015) 'Financial Literacy and Economic Outcomes: Evidence and Policy Implications.' *J Retire.*, 3(1), 107-114. doi: 10.3905/jor.2015.3.1.107.
- Mpaata, Eva, Koske, Naomy and Saina, Ernest (2023) 'Does self-control moderate financial literacy and savings behavior relationship? A case of micro and small enterprise owners.' *Current Psychology*, 42(12), 10063-10076.
- Murad, Majid, et al. (2021) 'The influence of entrepreneurial passion in the relationship between creativity and entrepreneurial intention.' *International Journal of Global Business and Competitiveness*, 16(1), 51-60.
- Obilov, Mirkomil (n.d.) 'Aholining moliyaviy savodxonlik darajasini baholashning ilmiy va metodologik masalalari.' *Iqtisodiy rivojlanish va tahlil*, 2(6), 118-128.
- Obilov, Mirkomil (n.d.) 'Moliyaviy Savodxonlikni Oshirishga Ta'sir Ko' ' topilgan Omillar.' *Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot*, 3(12), 668157.
- Ojogbo, L. U., et al. (2022) 'Financial literacy and development of entrepreneurial intentions among graduates of selected tertiary institutions in Nigeria.' *Int. J. Res. Pub. Rev*, 3, 1052-1061.
- Philippas, Nikolaos D. and Avdoulas, Christos (2021) 'Financial literacy and financial well-being among generation-Z university students: Evidence from Greece.' In: *Financial literacy and responsible finance in the FinTech era*. Routledge, 64-85.
- Sabri, Mohamad Fazli and MacDonald, Maurice (2010) 'Savings behavior and financial problems among college students: The role of financial literacy in Malaysia.' *Cross-Cultural Communication*, 6(3), 103-110.
- Sen, A. (1999) *Development as Freedom*. New York: Anchor Books. ← (Oldingi ro'yxatdan qolgan bo'lsa, umumiy bibliografiyada joylashadi)
- Sohn, Sang-Hee, et al. (2012) 'Adolescents' financial literacy: The role of financial socialization agents, financial experiences, and money attitudes in shaping financial literacy among South Korean youth.' *Journal of adolescence*, 35(4), 969-980.
- Stolper, Oscar A. and Walter, Andreas (2017) 'Financial literacy, financial advice, and financial behavior.' *Journal of business economics*, 87, 581-643.
- Vaxabov A.V., Toshmatov Sh.A., Xaydarov N.X., Vaxobov A.V. (2013) *Moliyaviy savodxonlik asoslari: o'quv qo'llanma*. Toshkent: Baktria press, 288 b.
- Восканян Р.О. (2018) 'Финансовая грамотность как условие формирования финансовой культуры.' *Azimuth of Scientific Research: Economics and Administration*, T. 7, № 1(22).
- Yakoboski, P., Lusardi, A. and Hasler, A. (2022) 'How Financial Literacy Varies among US Adults: The 2022 TIAA Institute-GFLEC Personal Finance Index.' *TIAA Institute Research Paper Series*, №. 2022-01.